## ADABIYOTLAR SHARHI

Yengil sanoatni xorij tajribasida o'rganish jarayoni masalaning ayrim jihatlari rossiyalik iqtisodchi olimlardan Bard V.S., Vasilyeva V.M., Gorskiy I.V., Dadalko V.A., Juravleva L.V., Kadomseva S.V., Karavayeva I.V., Kovalev V.V., Kovaleva A.M., Knyazev V.K., Lapusta M.G., Maskulyak I.D., Mazurina T.V., Mardarovskaya Yu.V., Milyakov N.V., Mesheryakova O.V., Oreshin V.P, Pavlova L.P., Panskov V.G., Pushkareva V.M., Rumyanseva Ye.V., Romanovskiy M.V., Stanislavchik U.N., Skamay L.G., Trenev N.N., Chernik D.G., Yutkina T.F.,Yanjul I.I. va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan[4].

Xususan Yengil sanoat bo'yicha ko'pgina olimlar asarlarida mulohazalar uchraydi, Misol uchun, Richard Florida "The Rise of the Creative Class" kitobi yengil sanoatning jamiyatga, iqtisodiyotga va madaniyatga ta'siri haqida muhim mulohazalar qiladi[5]. Boshqa olimlar esa, yengil sanoatning ekologik ta'sirini, ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarni o'rganish uchun xizmat qilganlar.

Germaniyada yengil sanoat bo'yicha ilmiy izlanishlar ko'p olimlar tomonidan olib borilmoqda. Misol uchun, Max Weber "The Protestant Ethic and the Spirit of Capitalism"[6] asarida yengil sanoatning iqtisodiyot va madaniyatga ta'siri haqida mulohazalar qiladi. Johann Wolfgang von Goethe esa, yengil sanoatning madaniyat va san'at sohasiga ta'sirini o'rganish uchun muhim ishlar yaratgan. Boshqa mashhur German olimlari shu sohada ilmiy izlanishlar olib boradilar va ularga o'zlarining fikrlarini ifoda qiladilar.

## TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Yengil sanoat Germaniya iqtisodiyotining qadimiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Tarixan bu sohadagi ishlab chiqarish Shimoliy Reyn va Vestfaliya, Baden-Vyurtemberg, Saksoniya, Quyi Saksoniyaning ayrim shaharlari, Tyuringiya va Gessenda, rivojlangan agrar va qulay geografik sharoitdagi aholi zich joylashgan yerlarda to'plangan. Xuddi shu holat talab (sig'imli bozorlar) va taklif (qulay infratuzilmali va asosiy taminot (yetkazib beruvchi) bozorlariga chiqish imkoniga hamda nisbatan zich joylashgan mehnat resurslariga ega bo'lgan mintaqalar) asosida yengil sanoat tarmog'i rivojlanishiga ta`sir ko'rsatgan.

Ikkinchi jahon urushining tugashi Germaniya yengil sanoatining yuksalishini boshlab bergan. Bu talabning o'sishi bilan bog'liq bo'lib, uni moliyaviy resurslarning yetarli bo'lmaganligi uchun import mahsulotlari hisobidan

2 Au K.F., Chan N.Y. The World Textile and Clothing Trade: Globalization versus Regionalization. The Hong Kong Polytechnic University, Hong Kong. OECD, 2004; A New World Map in Textilesand Clothing. Adjusting to Change.OECD.

3 WTO.International Trade Statistics. 2014. URL: http: // www.wto.org.

4 Qarang: Бард В.С., Павлова Л.П. Налоги в условиях экономической интеграции. – М.: КНОРУС, 2004. -240 с. Бюджетная система Российской Федерации: Учебник. Под ред. М.В. Романовского, О.В. Врублевской. –М.: Юрайт, 2001. Бюджетная система Российской Федерации. Учебник.Под ред. Г.Б. Поляка. –М.: ЮНИТИ, 2001. Васильева М.В. Финансовая политика: учеб.пособие. – Ростов н/Д: "Феникс", 2008. – 220 с. Журавлева Л.В. Бюджетная политика как метод государственного регулирования. –М.: Дело ЛТД, 2001. Орешин В.П. Государственное регулирование национальной экономики: Учебное пособие. –М.: Юрист, 1999.Пансков В.Г. Налоги и налогообложение в Российской Федерации. – М., 2006. Пеньков Б.Е. Налоговый импульс экономического роста // Экономист, 2005. №6. Пушкарева В.М. История финансовой мысли и политики налогов: Учебное пособие. –М.:Финансы и статистика, 2003. Румянцева Е.Е. О новых подходах к управлению финансами предприятий // Финансы и кредит. 2004. №24. Янжул И.И. Основы начала финансовой науки: Учение о государственных доходах. – М.: Статус, 2002. и др.

5 https://en.m.wikipedia.org/wiki/Richard_Florida#:~:text=Florida's%20theory%20asserts%20that%20metropolitan,

6 https://www.britannica.com/money/Protestant-ethic#:~:text=Max%20Weber%2C%201918.&text=Protestant%20ethic%2C%20in%20s.

qondirishning iloji bo‘lmagan. 1960-yillarning o‘rtalariga kelib tarmoqda faoliyat ko‘rsatuvchi subyektlar soni qisqara boshlagan. Sababi sodir bo‘lgan keskin texnologik o‘zgarishlar. Ular kapital sig‘imining oshishi va bozorlar konsolidatsiyalashuvining boshlanishi bilan ishlab chiqarishning avtomatlashuvi va samaradorligining o‘sishiga olib kelgan. Bundan tashqari, xalqaro bozorlar tomonidan raqobatning kuchayishi, bu ham tarmoqdagi o‘zaro munosabatlar xarakteri va uning tarkibiy tuzilmasining o‘zgarishiga olib kelgan.

1970-yillarning oxiridan 1990-yillarning o‘rtalarigacha Germaniya yengil sanoatidagi tarkibiy o‘zgarishlar keng ko‘lamli xarakter kasb etadi:bandlik siqiladi; bozorning tarkibiy tuzilmasi va ixtisoslashuvi o‘zgaradi.1980-yillardan boshlab nemis yengilsa sanoati chuqur transformatsion jarayonlarni boshidan kechiradi va buning natijasida, 2010-yilga kelib, Germaniya yirik iste’molchiga va Yevropa Ittifoqidada kiyim-kechak ishlab chiqarish bo‘yicha 3-o‘rinda turuvchi ishlab chiqaruvchiga aylandi. Germaniya yengil sanoatining 30 yil ichida restrukturizatsiya qilinishini quyidagi 3 bosqichga bo‘lish mumkin: tarmoq tuzilmasini qayta qurish; xalqaro integratsiyalashuv; innovatsion yetakchilikni ta’minlash.

**Birinchi bosqich** – tarmoq tuzilmasini qayta qurish (1970–1990-yillar). Bu bosqich tarmoqda bandlikning keskin zichlashuvi (qisqarishi) bilan xarakterlanadi. Sababi: umumiy talabning kamayishi va arzon importning ko‘payishidir. Tarmoq, tuzilmasini qayta tashkil etish raqobatning keskinlashuvi sharoitida yuqori samaradorlikka erishish maqsadida amalga oshirilgan. 1970-yillardayok tarmoqda kompaniya va band bo‘lganlar sonining kamayishi tendensiyasi vujudga kelgan va u hozirgi paytgacha davom etmoqda. So‘nggi 32 yil davomida postindustrial jamiyatga o‘tish jarayonida yengil sanoat o‘zining 93% subyektlaridan va 91% ishchi kuchidan mahrum bo‘lgan.

**Ikkinchi bosqich** – xalqaro vertikal integratsiya (1990-yillardan 2000-yillarning boshigacha). Ushbu bosqich jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining kuchayishi bilan sodir bo‘lgan. Tarmoq qayta qurish uchun yangi impuls oladi. Ishlab chiqaruvchilarning diqqat markazida raqobat afzalliklarining yangi manbai sifatida logistika, marketing va dizayn turadi hamda ular xalqaro vertikal integratsiyalashgan tuzilmalarning jadal suratlarda shakllanishiga olib kelgan. Kompaniyalar va band bo‘lganlar soni qisqarishining davom etishi tarmoqni qayta qurish natijasi bo‘lgan. 1990-yillar boshida 2009-yilgacha yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish Germaniyada har yili 7–11%ga kamaygan. Eng katta qisqarish 2009-yilga to‘gri kelgan (18%ga). Buning sababi, birinchi navbatda, global jahon inqirozidir. Faqat 2010-yilga kelib qisqarish o‘z o‘rnini 7%li darajadagi o‘sishga bo‘shatib bergan.

**Uchinchi bosqich** – innovatsion yetakchilik (2005-yildan hozirgi vaqtgacha). 2005-yilda kvotalashtirishning bekor qilinishi va xalqaro savdoning liberallashtirilishi bilan 30 yillik qayta qurishning 3-bosqichi boshlandi va u ishlab chiqarish jarayonlarining kapital, fan va innovatsion sig‘imli intensiv bosqichlarida Germaniyaning ixtisoslashuvini yakuniy mustahkamladi. Mamlakat fan va ishlanmalarga yirik mablag‘larni kuzdatutuvchi texnik tuqimachilikni ishlab chiqarish bo‘yicha jahon yetakchisiga aylandi.

Hozirgi vaqtda Germaniya yengil sanoat mahsulotlarini (asosan, to‘qimachilik va kiyim-kechak) eksport qilish bo‘yicha dunyoda Xitoy va Italiyadan sung 3-o‘rinda turadi. Eksport xajmining to‘qimachilik va kiyim-kechak ichki ishlab chiqarish xajmiga nisbati 1970 yildagi 10%dan 2012-yilda 43,7%ga yetdi.

Germaniyaning asosiy savdo hamkorlari Yevropa Ittifoqining a`zolari hisoblanib, ularga to‘qimachilik va kiyim-kechak eksportining 71,2% ga to‘g‘ri keladi. Yevropa qolgan mamlakatlarining hissasi 17,6%, Osiyo mamlakatlariniki esa 5,6%. Shunday qilib, nemis eksportining 88,8%i ichki yevropa harakteriga ega. Eksport daromadlari ikki asosiy sektor o‘rtasida quyidagi nisbatda taqsimlangan: eksport tushumlarining 41 % kiyim-kechakka va 59% to‘kimachilikka to‘gri keladi.

Germaniya Yevropa Ittifoqida kiyim-kechak va to‘qimachilikning yirik hamda to‘qimachilikning dunyoda ikkinchi (AQSHdan so‘ng) import qiluvchisidir. Mamlakat milliy ishlab chqaruvchilari nemis bozorining 5%ga yaqinini taminlaydi. Bu hissaning asosiy qismi o‘rta va yuqori baholar segmentidagi yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqaruvchilarga to‘g‘ri keladi. Ichki ishlab chiqarish, shuningdek, texnik to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. 1990-yillarning o‘rtalarida bu segment real ifodada 40%gacha yetib borgan.

Yengil sanoat mahsulotlarining importi mamlakatdagi jami savdolarning 90%idan ko‘prog‘ini tashkil etadi. Asosiy mol yetkazib beruvchilar Osiyo mamlakatlari (hissasi 51,9%), so‘ng Yevropa Ittifoqi mamlakatlari (hissasi – 29,5%) va boshqa Yevropa mamlakatlari (hissasi 14,7%) hisoblanadi. Mamlakatlar o‘rtasida eng katta hissa Xitoy (28%), Turkiya (10,8%) va Bangladeshta (8,8%) to‘g‘ri keladi. Sunti 10 yil ichida to‘qimachilik va tikuvchilik sektorlarida o‘sishning ijobiy tendensiyasi kuzatilmoqda (inqirozli 2008–2009-yillar bundan mustasno).

Germaniya yengil sanoat mahsulotlari bozorining 43-46%i tarmoq daromadlarining 10%ini o‘zida mujassam etuvchi kichik va o‘rta kompaniyalardan iborat. Shunday qilib, bozor ishtirokchilarining qariyb yarmi uncha katta bo‘lmagan oilaviy firmalardan iborat bo‘lib, ularning umumiy daromadlari hissasi soni 1%dan oshmaydigan yirik subyektlarning daromadlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Tarkib topgan bunday tarkibiy tuzilma bank sektoriga

kuchli tarzda yo'naltirilgan Germaniya moliya tizimining o'ziga xos xususiyatlari va tarmoq rivojlanishining umumiy tendensiyalari natijasidir. Mamlakatning moliyaviy tizimi universal banklarga tayangan bo'lib, ular tijorat banklari, kooperativ kredit va turli xil ijtimoiy-huquqiy kredit institutlarini o'z ichiga qamrab oladi. So'nggi ikki tipdagi institutlar(XIX asrda paydo bo'lgan va Ikkinchi jahon urushidan so'ngi faoliyatini intensiv kengaytirgan)ning asosiy vazifalari o'z a`zolarining ehtiyojlarini, turli moliyaviy instrumentlarni qo'llanilishi bilan qondirish hisoblanadi. Birinchi navbatda, faoliyati foyda olishga qaratilgan tijorat banklaridan farqli o'laroq, kooperativ va boshqa moliyaviy institutlar, ular taraqqiyotini tezlashtirib, kichik hamda o'rta biznesni rivojlantirish va kreditlashtirish uchun imkoniyatlarning keng spektrini taqdim etadilar. Bir korxonaga to'g'ri keladigan tushum darajasining ancha yuqori ekanligi to'qimachilik va kiyim-kechak bozorlarining asosiy xususiyatlaridan biridir: kiyim-kechak ishlab chiqarish tarmog'ining o'rtacha daromadi bir qator guruhlar bo'yicha to'qimachilik tarmog'iga nisbatan 1,8 barobar yuqori hisoblanadi.

Bozorning yangi tendensiyalari qatoriga elektron savdoning yuqori intensivligini ko'rsatish mumkin. Masalan, 2011-yilda kiyim-kechak onlayn tizimida buyurtma beriladigan ommabop mahsulotta aylandi. Buning natijasida Germaniya kompaniyalarining deyarli 47%i bu mahsulotni sotishga ixtisoslashmoqda.

Amalga oshirilgan tahlil tarmoqda ishlab chiqaruvchilarning quyidagi ikki guruhi mavjud ekanligini ko'rsatmoqda:

a) nisbatan uncha katta bo'lmagan (asosan, oilaviy) kompaniyalar;

b) yirik xalqaro kompaniyalar.

Birinchi guruhga kiruvchi kompaniyalar o'z pozisiyalarini mamlakat rivojlanishining tarixi o'ziga xos xususiyatlari hamda yuqori darajadagi raqobatga o'tish sababi bilan saqlab qolmoqdalar. Ular iste`molchilar e'tiborini kam xarajatlar bilan emas, balki yuqori sifat, brend, dizayn va ishlab chiqarilayotgan mahsulotning innovatsion xarakteri bilan o'zlariga qaratadilar. Yirik kompaniyalarning vujudga kelishini esa globalizatsiya jarayonlari natijasi va rivojlanayotgan mamlakatlardagi "o'yinchi"larning ekspansiyasiga javob sifatida qarash kerak. Bozorning bu "o'yinchi"lari global ishlab chiqarish zanjirlarini shakllantirib, turli tuman autsorsing sxemalarida ishtirok etadilar. Bir vaqtning uzida ular ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini taminlash maqsadida ishlab chiqarishning barcha bosqichlari ustidan nazoratni o'zlarida saqlab qoladilar. Davlat mahsulotni standartizatsiyalash va sertifikatsiyalash tizimlari hamda importta cheklovlar kiritish orqali yengil sanoatni tartibga solishda katta rol o'ynaydi. Qo'llanilayotgan importta cheklovlar orasida mahsulot kelib chiqadigan mamlakatta talablar va yil qoidalarida ko'zda tutilgan import tarifi muhim ahamiyatga ega. Masalan, import o'rtacha tarifi boshqa tarmoqlarga nisbatan yuqoriroq darajada, yani 7–12% atrofida o'rnatilgan". Milliy ishlab chqaruvchilarni qo'llab-quvatlash va himoya qilishga federal va mintaqaviy darajada turli davlat va nodavlat tuzilmalari xizmat qiladi. Ular qatoriga: "Gesamttextil – Gesamtverband der deutschen Textil – und Mode industrie", "Textination", "Bundesverband des Deutschen Textileinzelhandels", "ZGV Mittelstandsverbund"larni kiritish mumkin. Ular yengil sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini bozorning tarkib topgan tarkibiy tuzilmasini saqlagan holda notarifli tartibga solish choralari orqali qullab-quvvatlaydilar.

Germaniya yengil sanoatining dinamik tarzda transformatsiyalashuvi davom etmoqda. O'zgarishlar Xitoy tomonidan raqobat bosimi tez sur'atlarda o'sib borishining ta`siri ostida sodir bo'lmoqda. Xitoy tovarlari oqimiga to'sqinlik qilish uchun Xitoyning jahon Savdo Tashkilotiga a`zo bo'lishi munosabati bilan alohida shartlar doirasidagi ximoya choralaridan foydalanmoqda. Biroq Xitoyning Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lishi bilan uning juda katta ichki bozori xam ochildiki, bu narsa nemis ishlab chqaruvchilarining rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Natijada, 2012-yilning dastlabki 3 choragida Germaniyadan Xitoyga yengil sanoat mahsulotlarini eksport kilish 2011-yilning shu davriga nisbatan 11,3% ga oshgan. Biroq hozirgi paytda nemislar tomonidan yetkazib berilayotgan tovarlar Xitoyning Germaniyadan importining 3,6%ini tashkil etmoqda, xolos.

Xitoydan tashqari, Germaniya ishlab chqaruvchilari nisbatan pastroq baholar segmentida Ruminiya, Hindiston, Pokiston va Vyetnam tomonidan raqobat bosimini his qilmoqda. Kelajakda Turkiya xam sezilarli darajada xavf solishi mumkin. Chunki u xam keyingi yillarda ishlab chiqarish zanjiridagi yuqori segmentlarni o'zlashtirib, ishonchli sifatiy o'sishni namoyon etmoqda.

Tarmoq taraqqiyotining prognozlari, asosan, yengil sanoat mahsulotlari milliy ishlab chiqarishining qisqarishiga xos bo'lgan amaldagi tendensiyaning saqlanib qolishi mumkinligini ko'rsatmoqda.Bunday vaziyatda o'sish texnik to'qimachilikni ishlab chiqarib, shuningdek, yangi mahsulotlarni yaratish dvigateli bo'lishi mumkin, ularning foydalilik darajasi Germaniya sanoatidagi o'rtacha darajadan 25,0%ga yuqoridir.

Germaniya yengil sanoati XX asrning ikkinchi yarmidan XXI asirning boshlariga kadar chuqur qayta tuzilmaviy o'zgarishlar orqali urushdan keyingi "bum"dan jahon bozoridagi raqobat kurashi sharoitida rivojlanish strategiyasini yaratishgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. 30 yildan kuproq vaqtta chuzilgan tarmoq tarkibiy

tuzilmasidagi tub oʻzgarishlar ishlab chiqarish baynalminallashuvi birinchi xalqaro vertikal integrallashtirilgan tarkibiy tuzilmaning shakllanishi va qisman konsolidatsiyalashuvi jarayonlaridan iborat buldi. Oxirgilar ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning yuqori sifat darajasini taminlash maqsadida ishlab chiqarish jarayonlari ustidan nazoratni saqlagan holda autsorsing sxemalariga asoslangan edi. Bir vaqtda bozor oʻzining tarixan tarkib topgan tavsiflarini saqlab qolishga muvaffaq boʻla oldiki, ularning orasida mustaqil kompaniyalar va oʻrta "oʻyinchi"lar sektorining kattaligi alohida rol oʻynaydi.

Germaniya yengil sanoat tarmogʻining muhim xususiyatlaridan yana biri yuqori malakali ishchi kuchining mavjudligi boʻlib, bu narsa mamlakatning yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarish zanjirining yakuniy bosqichlarida ixtisoslashuvda raqobatli ustunliklarini aniqlab beradi hamda oliy va oʻrta segmentlar uchun mahsulotlar ishlab chiqarishga imkon beradi. Bunda kichik, oʻrta va yirik korxonalarning unumdorlik darajasi deyarli bir darajada boʻlib, u Oʻzbekiston tajribasi bilan keskin farqlanadi.

Nemis yengil sanoati rivojlanishining kuzatilayotgan tendensiyalari tarmoq konsolidatsiyalashuvi tendensiyalarining saqlanib qolishi hamda texnikaviy jihatdan murakkab boʻlgan (texnik toʻqimachilik vertikal integratsiyalashtirigan tuzilmalar uchun maydoni) va eksklyuziv tovarlar segmentida mamlakat pozisiyasining mustahkamlanishi xususida prognoz qilishga imkon beradi. Raqobat ustunligining faol asosini qoʻshib olgan holda vertikal integratsiyalashgan tuzilmalarning nafaqat Yevropada, balki Osiyoning tez oʻsib borayotgan mamlakatlarida ham rivojlanish va milliy bozorda oʻrta kompaniyalar rolining qisqarishi ehimoli katta. Bu esa rivojlanayotgan mamlakatlar ekspansiyasi sharoitida nemis yengil sanoatining barqaror rivojlanishini taminlashi mumkin.

Germaniya yengil sanoat korxonalari dunyoda birinchilar qatorida ishlab chiqarishning baynalminallashuvi jarayonlariga qoʻshilgan. Ishlab chiqarishning ayrim bosqichlari ishchi kuchi arzon boʻlgan mamlakatlarga koʻchirilgan. Bir vaqtning oʻzida nemis milliy korxonalarining kapital sigʻimi oshirilgan.

Germaniya raqobat kurashining keskinlashuvi va rivojlanayotgan mamlakatlar ekspansiyasi sharoitida jahon yengil sanoatida oʻz pozitsiyasini saqlab qolgan va xatto mustahkamlagan mamlakat hisoblanadi. Bunday muvaffaqiyatning sabablari, bir tomondan, tarmoq rivojlanishining tarixiy dinamikasi va ana`nalarida, ikkinchi tomondan, davlat(asosan, institusional choralar) va yanada kichikroq darajada, xususiy "oʻyinchi"lar tomonidan qilingan intilish va xatti-harakatlarga borib taqaladi. Ularning ayrimlridan boshqa mamlakatlarning amaliyotida, xususan, Oʻzbekistonda xam foydalanish mumkin. Masalan, bozor ishtirokchilarining faol kooperatsiyashuvi hamkorlik qilish, ma'lumotlar bilan almashishni, konsolidatsiyalashgan pozitsiyani ishlab chiqish uchun uziga xos "maydon"yaratadi. U milliy va xalqaro darajalarda dialoglarni amalga oshirishga qodir boʻlgan yirik institutsional birlikni shakllantiradi. Bunday tizimning mavjudligi nafaqat yirik, balki kichik "oʻyinchi"larning manfaatlarini ham himoya qilishga imkon beradi va shu tarzda bozorning raqobat xarakterini saqlab qoladi. Tarmoq taraqqiyoti uchun sharoitlar yaratadigan va uning "oʻyinchi"larini institutsional va notarifli tartibga solish tizimlari orqali stimullashtiradigan davlat xam bu masalada katta rol oʻynaydi.

Shu oʻrinda Germaniyada kompaniyalar rivojlanishining oʻziga xos xususiyatlarini xam takidlab oʻtish lozim. mehnat resurslari ortiqcha boʻlgan mamlakatlar ishlab chiqaruvchilariga samarali qarshi turish uchun imkoniyat boʻlmagan bir sharoitida nemis firmalari tarmoqining innovatsion va kapital sigʻimli sektorlariga oʻtib oldilar. Bu esa Xitoy va Osiyoning boshqa ishlab chiqaruvchilarinig raqobat kurashida zarbalaridan qutulib qolishga va bozorda oʻz oʻrnini saqlab qolishga imkon berdi. Yirik kompaniyalar esa bir vaqtning oʻzida shakllantirish orqali yoki amalda boʻlgan global ishlab chiqarish zanjirlari safiga qoʻshilish usuli bilan tor ixtisoslashtirilgan strategiyani amalga oshirish yoʻlidan bordilarki, bu strategiya ularni yanada rivojlanishi va jahon bozoridagi pozitsiyalari mustahkamlanishini ta'minladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Ikkinchi jahon urushining tugashi Germaniya yengil sanoatining yuksalishini boshlab bergan. Bu talabning oʻsishi bilan bogʻliq boʻlib, uni moliyaviy resurslarning yetarli boʻlmaganligi uchun import mahsulotlari hisobidan qondirishning iloji boʻlmagan;
2. Eksport daromadlari ikki asosiy sektorlar oʻrtasida quyidagiga nisbatda taqsimlangan: eksport tushumlarining 41% kiyim-kechakka va 59% toʻqimachilikka toʻgʻri keladi;
3. 1980-yillarda boshlangan va hozir ham davom etayotgan tarmoqda faoliyat koʻrsatayotgan subyektlar sonining qisqarishi kompaniyalarning ommaviy tarzda kasodga uchrashi (boshqa tarmoqlar bilan taqqoslaganda ularning soni unchalik katta emas) bilan bogʻliq boʻlmasdan, balki buning asosiy sababi bozorning sekin-astalik bilan konsolidatsiyalashuv jarayonlari va savdo konsentratsiyalashuvining oʻsishidir;

4. Germaniya yengil sanoat mahsulotlari bozorining 43-46%i tarmoq daromadlarining 10%ini o'zida mujassam etuvchi kichik va o'rta kompaniyalardan iborat. Bozor ishtirokchilarining qariyb yarmi uncha katta bo'lmagan oilaviy firmalardan iborat bo'lib, ularning umumiy daromadlari hissasi soni 1%dan oshmaydigan yirik subyektlarning daromadlari hissasiga to'g'ri keladi. Tarkib topgan bunday tarkibiy tuzilma bank sektoriga kuchli tarzda yo'naltirilgan Germaniya moliya tizimining o'ziga xos xususiyatlari va tarmoq rivojlanishining umumiy tendensiyalari natijasidir;
5. Bir korxonaga to'g'ri keladigan tushum darajasining ancha yuqori ekanligi to'qimachilik va kiyim-kechak bozorlarining asosiy xususiyatlaridan biridir: kiyim-kechak ishlab chiqarish tarmog'ining o'rtacha daromadi bir qator guruhlar bo'yicha to'qimachilik tarmog'iga nisbatan 1,8 barobar yuqori hisoblanadi;
6. 1960-yillarning oxirlaridan boshlab nemis kompaniyalari tomonidan autsorsing amaliyoti qo'llanila boshlagan. Hozirgi vaqtda ishlab chiqaruvchilar tashqi kompaniyalar bilan hamkorlikda turli-tuman investitsiyalarni amalga oshiradilar. Cut-Make-Trim (CMT) modeli eng keng tarqalgan shakl hisoblanadi;
7. Nemis kompaniyalarining strategiyalari xarajatlarni qisqartirish strategiyasi bilan birgalikda diversifikatsiyalashtirilgan tovarlarni ommaviy ishlab chiqarishga yo'naltirilgan;
8. Davlat mahsulotni standartizatsiyalash va sertifikatsiyalash tizimlari hamda importga cheklovlar kiritish orqali yengil sanoatni tartibga solishda katta rol o'ynaydi. Qo'llanilayotgan importga cheklovlar orasida mahsulot kelib chiqadigan mamlakatga talablar va YeI qoidalarida ko'zda tutilgan import tarifi muhim ahamiyatga ega;
9. Tarmoq taraqqiyotining prognozlari, asosan, yengil sanoat mahsulotlari milliy ishlab chiqarishining qisqarishiga xos bo'lgan amaldagi tendensiyaning saqlanib qolishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Bunday vaziyatda o'sish dvigateli bo'lib texnik to'qimachilikni ishlab chiqarish va shuningdek, yangi mahsulotlarni yaratish bo'lishi mumkinki, ularning foydalilik darajasi Germaniya sanoatidagi o'rtacha darajadan 25,0%ga yuqoriroqdir;
10. Mehnat resurslari ortiqcha bo'lgan mamlakatlar ishlab chiqaruvchilariga samarali qarshi turish uchun imkoniyatlarning yo'qligi sharoitida nemis firmalari tarmoqning innovatsion va kapital sig'imli sektorlariga o'tib oldi.

**Foydalanilgan adabiyetlar ro'yxati:**


1. Buendesministeriumfuer Wirtschaft und Technolojie, 2013 ma'lumotlari.
2. IXPOS. 2013. The German Biziness Portal. URL:http:/ /www.ixpos.de docs/ 2011/october/tradoc_148259.
3. Bunday bir xillik O'zbekiston yengil sanoat korxonalari o'rtasidagi mehnat unumdorligining darajasi bo'yichf keskin farqlarga nisbatan o'zining ajralib turishi bilan xarakterlanadi.
4. Heymann E. Textile and Clothing Industry. Innovation and Internationalisation as Success Factors Innovation and Internationalisation as Success Factors //// Deutsche Bank Research. 2011. July 12.
5. IXPOS. 2013. The German Business Portal. URL: http:/ /www.ixpos.de
6. The Textile and Clothing Sector and EU Trade Policy.February 2011. URL:http:// trade. ec. europa. eu/doclib/docs/2011/October/tradoc_148259
7. Buendesministeriumfuer Wirtschaft und Technologie,2013
8. Hauser J. Export Marketing Survey: German Market for Textile and Clothing //The European Union's TacisProgramme for Moldova. 2010. June.
9. Heymann E. Textile and Clothing Industry.Innovation and internationalistion as Success Factors//Deutsche Bank Research. 2011. July 12.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 3**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.